Muammoning mohiyati shundaki, O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish tuzilmasi bir tomonlama — asosan korxonaning o'z mablag'lari va bank kreditiga tayanadi. Bank kreditidan foydalanish shartlari esa og'ir: investitsiya loyihalarida loyiha qiymatining 25–30 foizini o'z hissasi sifatida kiritish, kredit summasining 125–130 foizi miqdorida garov taqdim etish hamda o'rtacha 28 foiz atrofidagi foiz stavkasini qoplash talab qilinadi. Bunday vaziyatda manbaga oid har qanday salbiy o'zgarish — foiz oshishi yoki kredit siqilishi — bir vaqtda ko'plab korxonalarning moliyaviy holatini izdan chiqaradi. Demak, kichik biznesning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning kaliti — moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishdir.

Aynan shu nuqtada tadqiqotning dolzarbligi yaqqol namoyon bo'ladi. 2026-yil O'zbekistonda islom moliyasi xizmatlarini institutsional joriy etishning hal qiluvchi yili bo'ldi. Oliy Majlis Senati islom moliyasini joriy



etish to'g'risidagi qonunni ma'qulladi, joriy yilda kamida bitta tijorat bankida islomiy "darcha" faoliyati yo'lga qo'yilishi, murobaha, muzoraba, ijara, mushoraka kabi instrumentlar amaliyotga tatbiq etilishi rejalashtirilgan [2]. Bundan tashqari, suveren sukuk dasturining ishga tushirilishi va Markaziy bankning islom moliyasi bo'yicha yettita standartni qabul qilishi ko'zda tutilmoqda [3]. Bu islom moliyasini kichik biznes uchun mutlaqo yangi moliyalashtirish manbasi sifatida o'rganishni nihoyatda zamonaviy va amaliy ahamiyatli vazifaga aylantiradi.

Islom moliyasi jahon miqyosida eng tez o'sayotgan moliya segmentlaridan biridir: global islom moliyasi sanoatining aktivlari 3 trillion AQSh dollaridan oshib ketgan bo'lib, u Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan birga Markaziy Osiyoga ham keng yoyilmoqda. O'zbekistonning bu jarayonga qo'shilishi nafaqat ichki talabni qondiradi, balki islom moliyasi standartlari bo'yicha ishlovchi xorijiy investorlar uchun mamlakatga yangi kapital oqimini ochadi. Mintaqada raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda bu omil kichik biznesning moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirishning strategik vositasiga aylanmoqda.

Mazkur masalaning yana bir muhim qirrasini — uning yashil iqtisodiyot maqsadlari bilan uyg'unligidir. Islom moliyasi o'zining aktivga asoslangan, spekulatsiyani inkor etuvchi va etik tamoyillari bilan barqaror hamda "yashil" moliyalashtirishga tabiiy ravishda yaqin turadi. O'zbekiston 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirayotgan bir paytda [7], yashil sukuk va etik moliyalashtirish kichik biznesni ham moliyaviy xavfsizlik, ham barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylanishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi — islom moliyasi vositalarining kichik biznes moliyaviy xavfsizligini manbalar diversifikatsiyasi orqali mustahkamlashdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, islom moliyasi ilk bor aynan kichik biznes moliyaviy xavfsizligi va manbalar diversifikatsiyasi kontekstida, yashil iqtisodiyot maqsadlari bilan bog'lab o'rganilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni moliyalashtirish muammolari jahon iqtisodiy adabiyotida chuqur o'rganilgan. J. Stiglitz va A. Weiss kredit ratsionlash nazariyasida banklarning axborot asimmetriyasi tufayli kichik subyektlarga nisbatan ehtiyotkor yondashuvini, bu esa ularning kredit olish imkoniyatini cheklashini ko'rsatib bergan [10]. A. Berger va G. Udell kichik biznesni moliyalashtirishning "moliyaviy o'sish davri" konsepsiyasini ishlab chiqib, korxonaning rivojlanish bosqichiga qarab turli manbalardan foydalanish zarurligini asoslagan [9]. Mazkur yondashuv manbalar diversifikatsiyasining nazariy negizini tashkil etadi.

Islom moliyasining an'anaviy moliyaga nisbatan barqarorligi xalqaro tadqiqotlarda alohida o'rganilgan. T. Beck, A. Demirgüç-Kunt va O. Merrouche islom va an'anaviy banklarni qiyoslab, islom banklarining aktivga asoslangan biznes modeli inqiroz davrida nisbatan yuqori kapitallashuv va aktivlar sifatini saqlab qolishini ko'rsatgan [11]. O'zbekistonda kapital bozori va muqobil moliyalashtirish masalalari S. Elmirzaev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da [12], islom moliyasini aynan kichik biznes moliyaviy xavfsizligi konteksti va manbalar diversifikatsiyasi bilan bog'lab tahlil qiluvchi kompleks ishlar deyarli yo'q. Ushbu maqola mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan va shu jihatdan ilmiy yangilikka ega.

Korxonalar moliyaviy xavfsizligi kategoriyasi adabiyotda turlicha talqin qilinadi: aksariyat mualliflar uni korxonaning tashqi va ichki tahdidlarga bardosh bera olishi, to'lov qobiliyati va moliyaviy mustaqilligini saqlagan holda barqaror rivojlana olish holati sifatida ta'riflaydi. Biroq bu ta'riflarda moliyalashtirish manbalarining tarkibi va xilma-xilligi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Mazkur tadqiqotda moliyaviy xavfsizlik manbalar diversifikatsiyasi prizmasi orqali qaraladi: korxonaning moliyaviy xavfsizligi nafaqat uning joriy to'lov qobiliyati, balki moliyalashtirish bazasining tarkibiy barqarorligi bilan ham belgilanadi. Moliyaviy inklyuziya nazariyasi nuqtayi nazaridan esa diniy yoki institutsional sabablarga ko'ra rasmiy moliyadan chetda qolgan subyektlarni tizimga jalb etish butun sohaning xavfsizligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti — O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash jarayoni, predmeti esa islom moliyasi vositalari orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlardir. Tadqiqotda qiyosiy tahlil (an'anaviy va islomiy moliyalashtirishni solishtirish), tizimli yondashuv, statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Empirik baza sifatida Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank, BMT Taraqqiyot dasturi va davlat strategik hujjatlarining ochiq ma'lumotlari qo'llanildi. Moliyaviy xavfsizlikni baholashda manbalar diversifikatsiyasi koeffitsiyenti va bank kreditiga bog'liqlik darajasi ko'rsatkichlari asos qilib olindi.

Manbalar diversifikatsiyasini miqdoriy baholash uchun Gerfindal–Girshman indeksiga asoslangan koeffitsiyentdan foydalanish taklif etiladi: $D = 1 - \sum (s_i)^2$, bunda s_i — i-manbaning umumiy moliyalashtirishdagi ulushi. Koeffitsiyentning qiymati 0 ga yaqinlashsa, moliyalashtirish bitta manbaga jamlangan (xavf yuqori), 1 ga




yaqinlashsa, manbalar muvozanatli taqsimlangan (xavf past) bo'ladi. O'zbekiston kichik biznesining amaldagi tuzilmasida ikki manba (o'z mablag'lari va bank krediti) hukmronlik qilgani bois D koeffitsiyenti past qiymatga ega. Islomiy kanalning qo'shilishi si' ulushlarini qayta taqsimlab, D koeffitsiyentini oshiradi va shu orqali moliyaviy xavfsizlik darajasini ko'taradi. Mazkur koeffitsiyent keyingi empirik tadqiqotlarda so'rovnoma asosidagi tanlama ma'lumotlar yordamida hisoblanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni kreditlash hajmi so'nggi yillarda sezilarli oshgan va Jahon banki tahliliga ko'ra, mikro, kichik va o'rta korxonalar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish salohiyati mavjud [6]. Bu borada moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib bormoqda, bank kreditlari esa ushbu tizimning asosiy tayanchlaridan biri sifatida xizmat qilmoqda, kapital bozori vositalaridan foydalanishni kengaytirish uchun ham zarur shart-sharoitlar shakllanmoqda (kapital bozori kapitallashuvi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15,9 foiz atrofida). Bunday jarayon moliyalashtirish tizimini yanada muvozanatlashtirish va moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Demak, har qanday yangi, mustaqil moliyalashtirish kanali — bu nafaqat qo'shimcha resurs, balki diversifikatsiya orqali xavfsizlikni oshiruvchi omildir.

Bundan tashqari, davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar hajmining oshishi muammoni butunlay hal etmaydi, balki ayrim hollarda chuqurlashtiradi: tahlillarga ko'ra, imtiyozli kreditlarning aksariyat qismi yetarlicha samarali bo'lmay, muammoli kreditlarga aylanmoqda. 2026-yilda kichik va o'rta biznesga ajratilishi belgilangan 140 trillion so'mlik resurs [1] sohaning bank kreditiga bog'liqligini yanada kuchaytirish xavfini tug'diradi. Agar bu mablag' faqat an'anaviy kredit shaklida yetkazilsa, moliyalashtirish tuzilmasining bir tomonlamaligi saqlanib qoladi. Aksincha, mablag'ning bir qismini islomiy moliyalashtirish va kapital bozori vositalari orqali yo'naltirish moliyalashtirish bazasini tarkibiy jihatdan barqarorlashtiradi. Bu — miqdoriy o'sishdan sifat barqarorligiga o'tishning kalitidir.

2026-yil bu boradagi burilish nuqtasi bo'ldi. Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan qonun islomiy moliyaviy faoliyat uchun litsenziya berish va soliqa tortish tartibini belgilaydi; joriy yilda kamida bitta bankda islomiy "darcha" ochilishi, 2030-yilga qadar kamida uchta tijorat bankida islom moliyasi xizmatlari joriy etilishi rejalashtirilgan [2]. Soliq jihatidan mubaha ustamasiga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligi, investitsiyaviy omonatdan olingan daromad soliqdan ozod qilinishi, islomiy ijara esa moliyaviy lizingga tenglashtirilishi belgilangan [2]. Bu instrumentlarni kichik biznes uchun raqobatbardosh qiladi. Bunday talab real asosga ega: BMT Taraqqiyot dasturi so'roviga ko'ra, aholining 68 foizi va biznes vakillarining 60 foizi diniy e'tiqodi sababli an'anaviy bank xizmatidan foydalanishni istamaydi, tadbirkorlarning 38 foizi esa islom moliyasi asosida resurs olishni afzal ko'radi [4] (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda islom moliyasiga talabni tavsiflovchi ko'rsatkichlar (foizda)¹

1 Manba: BMT Taraqqiyot dasturi so'rovi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [4]



Ushbu raqamlar islom moliyasi joriy etilishining nafaqat diniy, balki iqtisodiy zaruriyat ekanini ko'rsatadi. Hozircha bu talab qondirilmagani uchun mablag'larning bir qismi bank tizimidan tashqarida — yashirin (kuzatilmaydigan) iqtisodiyotda qolmoqda. Markaziy bank islom moliyasini aynan yashirin sektordan mablag'ni bank tizimiga jalb qilishning muqobil mexanizmi sifatida baholaydi [2]. Bu kichik biznes uchun ikki tomonlama foyda beradi: yangi moliyalashtirish manbasi ochiladi va rasmiy moliya tizimiga jalb qilinish orqali moliyaviy inklyuziya kuchayadi.

Institutsionallashuv jadal bormoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, islomiy mikromoliya xizmatlari hajmi 22 milliard so'mga yetdi; suveren sukuk dasturi esa kelgusida korxonalariga kamida 10 milliard AQSH dollarigacha qo'shimcha kapital jalb qilish imkonini berishi kutilmoqda [3]. Bozorga xususiy tashabbuslar ham kirib kelmoqda: IT Park Ventures islomiy fintex-startapga sarmoya yo'naltirdi, ayrim kompaniyalar muddatli to'lovning islomiy shaklini ishlab chiqmoqda [3]. Davlat strategiyasiga ko'ra, islom moliyasi xizmatlari ilk bor 2027-yilda bank amaliyotida paydo bo'lib, 2030-yilga qadar ularning soni sezilarli oshishi prognoz qilinmoqda. Bu kichik biznes uchun barqaror va kengayib boruvchi yangi moliyalashtirish infratuzilmasi shakllanayotganini bildiradi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda islom banklari sonining istiqbolli prognozi (2027–2030-yillar)²

Islom moliyasining har bir asosiy vositasi kichik biznesning muayyan ehtiyojini qondira oladi va shu orqali moliyalashtirish tuzilmasini boyitadi. Quyidagi jadvalda asosiy instrumentlar va ularning kichik biznesni moliyalashtirishdagi o'rni keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
Asosiy islom moliyasi instrumentlari va ularning kichik biznesni moliyalashtirishdagi o'rni³

Instrument	Mohiyati	Kichik biznes uchun qo'llanilishi
Murobaha	Tovarni ustama (kelishilgan foyda) bilan nasiyaga sotish	Aylanma mablag', xomashyo va asbob-uskuna sotib olishni moliyalashtirish
Ijara	Mol-mulkni islomiy ijaraga (lizingga) berish	Uskuna va transport vositalarini garovsiz egallash
Mushoraka	Sherikchilik: foyda va zararni ulush asosida taqsimlash	Yangi loyihalarni ulushli moliyalashtirish, xavfni bo'lishish
Muzoraba	Bir tomon kapital, ikkinchisi mehnat qo'shadigan sheriklik	Boshlang'ich tadbirkorlik va startaplarni moliyalashtirish
Salam / Istisno	Tovar uchun oldindan to'lov yoki ishlab chiqarishga buyurtma	Qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish aylanmasini ta'minlash
Sukuk	Aktivga asoslangan islomiy qimmatli qog'oz (obligatsiya muqobili)	Kapital bozori orqali jamoaviy moliyalashtirish, yashil loyihalar

² Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [2; 3]

³ Manba: Islom moliyasi qonunchiligi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [2; 3]



Jadvaldan ko'rinadiki, islom moliyasi vositalari kichik biznesning butun moliyaviy ehtiyoji — aylanma mablag'dan tortib investitsiya va startap moliyalashtirishgacha — ni qamrab oladi. Eng muhimi, mushoraka va muzoraba kabi sheriklik instrumentlari xavfni moliyalashtiruvchi va tadbirkor o'rtasida taqsimlaydi; bu an'anaviy kreditdan tubdan farq qiladi, chunki butun xavf tadbirkor zimmasiga tushmaydi. Aynan shu xususiyat kichik biznesning moliyaviy xavfsizligini oshiradi.

Mazkur yo'nalishga xalqaro qiziqish ham kuchaymoqda, bu esa kichik biznes uchun qo'shimcha resurs manbasini anglatadi. Yirik xorijiy investorlar islomiy moliyalashtirish orqali O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga hamkorlik qilishga tayyorligini bildirgan, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlaridan keluvchi sarmoya uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda [2]. Bu kichik biznesning moliyalashtirish bazasini nafaqat ichki, balki tashqi manbalar hisobiga ham kengaytirib, manbalar diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtiradi.

Xorijiy tajriba bu boradagi yo'lni ko'rsatadi. Malayziya islom moliyasi ekotizimini izchil rivojlantirib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlovchi islomiy mahsulotlar hamda yashil sukukni jahon amaliyotiga ilk bor olib kirgan davlatlardan biriga aylangan. Fors ko'rfazi mamlakatlari va Indoneziyada esa sukuk bozori kichik va o'rta korxonalarni kapital bozori orqali moliyalashtirishning samarali kanaliga aylangan. Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi tegishli huquqiy baza, malakali islom shartlari nazorati va davlat rag'batlantiruvchi mavjud bo'lganda kichik biznesning moliyalashtirish bazasini real diversifikatsiya qila oladi. O'zbekiston uchun bu tajribalarni mahalliy sharoitga moslab joriy etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, islom moliyasini joriy etish jarayonida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, banklarda islomiy kengashlarini tashkil etish, alohida buxgalteriya hisobini yuritish va malakali mutaxassislarini tayyorlash institutsional salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, tegishli standartlar va tartibga solish bazasi izchil shakllanib borayotgani islom moliyasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish imkonini yaratadi. Uchinchidan, tadbirkorlar va aholining islom moliyasi mahsulotlari bo'yicha bilim va xabardorligini oshirish ushbu xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sabab, islom moliyasining kichik biznes moliyaviy xavfsizligiga ijobiy ta'siri uning bosqichma-bosqich, malakali va shaffof joriy etilishi orqali yanada mustahkamlanadi.

Islom moliyasining moliyaviy xavfsizlikka ta'sirini aniqroq ko'rsatish uchun uni an'anaviy bank kreditlashi bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Qiyoslash shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi xavf taqsimoti, garov yuki va manbalar diversifikatsiyasi bo'yicha kichik biznes uchun qulayroq sharoit yaratadi (2-jadval).

2-jadval

An'anaviy va islomiy moliyalashtirishning kichik biznes moliyaviy xavfsizligiga ta'siri⁴

Mezon	An'anaviy bank krediti	Islomiy moliyalashtirish
Asos	Foiz (qat'iy belgilangan)	Aktiv va real bitim (foizsiz)
Xavf taqsimoti	To'liq tadbirkor zimmasida	Moliyachi va tadbirkor o'rtasida bo'linadi
Garov yuki	Yuqori (125–130%)	Aktivga asoslangani uchun nisbatan past
Manbalar diversifikatsiyasi	Cheklaydi (yagona kanal)	Oshiradi (yangi mustaqil kanal)
Moliyaviy inklyuziya	Diniy sabab bilan chetlatish	Chetda qolgan 60% biznesni jalb etadi
Yashil iqtisodiyotga moslik	Bilvosita	Yuqori (yashil sukuk, etik moliya)

Yashil iqtisodiyot konteksti bu yerda alohida ahamiyat kasb etadi. Islom moliyasi tamoyillari — aktivga bog'langanlik, spekulyatsiya va zararli faoliyatni taqiqlash — barqaror va "yashil" moliyalashtirish mezonlari bilan tabiiy ravishda mos keladi. Jahon amaliyotida yashil sukuk eng tez o'sayotgan barqaror moliya vositalaridan biriga aylangan. O'zbekistonda suveren sukuk dasturining ishga tushirilishi [3] kelgusida kichik biznesning energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va resurstejamkor loyihalarini moliyalashtirish uchun yashil sukuk segmentini shakllantirish imkonini beradi. Shu tariqa, islom moliyasi bir vaqtning o'zida uch maqsadga xizmat qiladi: kichik biznes moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi, moliyaviy inklyuziyani oshiradi va 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi [7].

Yashil sukukning kichik biznes uchun amaliy ahamiyati shundaki, u aktivga asoslangan bo'lgani uchun mablag' aniq, ko'zga ko'rinadigan barqaror loyihaga (masalan, quyosh panellari, energiya tejavchi uskunalar yoki tomchilatib sug'orish tizimlari) bog'lanadi. Bu investorda ishonch uyg'otadi va kichik biznesga nisbatan axborot asimmetriyasi muammosini yumshatadi. Bundan tashqari, etik va diniy mezonlarga mos moliyalashtirish

4 Manba: muallif tomonidan [2; 4; 11] asosida tuzilgan



chetda qolgan tadbirkorlar qatlamini barqaror loyihalarni amalga oshirishga rag'batlantiradi. Natijada moliyaviy xavfsizlik va ekologik barqarorlik bir-birini taqozo etuvchi maqsadlarga aylanadi — bu “yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” yo'nalishining mohiyatiga to'liq mos keladi.

Shu asosda moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashning quyidagi modeli taklif etiladi: kichik biznes moliyalashtirish tuzilmasiga islomiy kanalni (darcha, sukuk, sheriklik instrumentlari) qo'shish manbalar diversifikatsiyasi koeffitsiyentini oshiradi, bank kreditiga bog'liqlik darajasini pasaytiradi va shu orqali manbaga oid tizimli xavfni kamaytiradi. Diversifikatsiya nazariyasiga muvofiq, manbalar qancha xilma-xil bo'lsa, korxonalar ayrim manbaga xos zarbaga shuncha kam tobe bo'ladi — demak, uning moliyaviy xavfsizligi shuncha yuqori bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi uning moliyaviy barqarorligi bilan yetarlicha ta'minlanmagan, chunki moliyalashtirish tuzilmasi o'z mablag'lari va bank kreditiga jamlangan. Ikkinchidan, 2026-yilda islom moliyasining institutsional joriy etilishi kichik biznes uchun mutlaqo yangi, mustaqil moliyalashtirish kanali yaratmoqda. Uchinchidan, islom moliyasi vositalari xavf taqsimoti, garov yuki va manbalar diversifikatsiyasi bo'yicha kichik biznesning moliyaviy xavfsizligini oshiradi hamda chetda qolgan keng tadbirkorlar qatlamini rasmiy moliya tizimiga jalb etadi. To'rtinchidan, islom moliyasining etik va aktivga asoslangan tabiati uni yashil iqtisodiyot maqsadlari bilan uyg'unlashtiradi.

Shundan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etiladi: tijorat banklarida islomiy “darcha”lar tarmog'ini kengaytirib, ularda kichik biznesga mo'ljallangan murobaha, ijara va sheriklik mahsulotlarini ishlab chiqish; kapital bozorida kichik biznes uchun yashil sukuk segmentini shakllantirish; islom moliyasi bo'yicha tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish; hamda kichik biznes moliyaviy xavfsizligini manbalar diversifikatsiyasi ko'rsatkichlari asosida muntazam kuzatuvchi monitoring tizimini joriy etish. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat alohida korxonalar barqarorligini, balki butun sohaning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi islom moliyasini ilk bor kichik biznes moliyaviy xavfsizligi va manbalar diversifikatsiyasi kontekstida, yashil iqtisodiyot maqsadlari bilan bog'lab tahlil qilinganida hamda diversifikatsiyani baholash uchun Gerfindal–Girshman indeksiga asoslangan koeffitsiyentning taklif etilganida namoyon bo'ladi. Bu kichik biznes moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning yaxlit, diversifikatsiyaga asoslangan modelini ishlab chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. -Toshkent, 2025-yil 26-dekabr // president.uz.
2. “Islom moliyasini joriy etish to'g'risida”gi qonun loyihasi Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. -Toshkent, 2026 // spot.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Islom moliyasi standartlari, suveren sukuk va islomiy mikromoliya xizmatlari to'g'risida ma'lumot. -Toshkent, 2026 // cbu.uz.
4. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). O'zbekistonda islom moliyasiga talabni o'rganish bo'yicha so'rov natijalari. -Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Yalpi ichki mahsulot va kichik biznes ulushi to'g'risida ma'lumot. -Toshkent: stat.uz, 2025.
6. World Bank. Improved Access to Finance to Help 7,000 Businesses in Uzbekistan Grow and Create Jobs (FINGROW). -Washington D.C., 2025.
7. “2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi”. -Toshkent, 2019 (2022-yilda yangilangan tahrir).
8. Yangilangan “O'zbekiston -2030” strategiyasi. -Toshkent, 2026-yil 16-fevral.
9. Berger A.N., Udell G.F. The economics of small business finance: The roles of private equity and debt markets in the financial growth cycle // Journal of Banking & Finance. -1998. -Vol. 22, Iss. 6–8. -P. 613–673.
10. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. -1981. -Vol. 71, No. 3. -P. 393–410.
11. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O. Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability // Journal of Banking & Finance. -2013. -Vol. 37, Iss. 2. -P. 433–447.
12. Elmiraev S. va boshqalar. Milliy korporativ obligatsiyalar bozori: joriy holat va istiqbollari. -Toshkent, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>